

VII. ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2024- yilning yanvar-martida chakana tovar aylanmasi 5 002,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- martiga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	5 002,9	108,4	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	4 333,8	108,1	86,6
undan fuqarolarning xususiy mulki	669,1	110,3	13,4

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-martida 5 002,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-mart oylarida 2 663,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,8 foizga o'sdi.

2024- yilning yanvar-martida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	5 002,9	108,4	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	1 669,9	105,4	33,4
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	2 663,9	109,8	53,2
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	669,1	110,3	13,4

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

6,0 mlrd.so‘m



Tuzlamalar

8,1 mlrd.so‘m



Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
(yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo‘shgan holda)

14,7 mlrd.so‘m



Zirotlar

1,2 mlrd.so‘m



Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi)

8,2 mlrd.so‘m



Sut va sut mahsulotlari

7,5 mlrd.so‘m



Tuxum

19,6 mlrd.so‘m



Tovuq go‘shiti

3,2 mlrd.so‘m



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar

45,2 mlrd.so‘m



Non va non mahsulotlari

12,9 mlrd.so‘m



Don mahsulotlari (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar) mahsulotlari

156,0 mlrd.so‘m




Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 287,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (156,0 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 381,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 261,7 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 102,6 mlrd. so'mni, otlar 15,6 mlrd. so'mni, parrandalar 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quydagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:




Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va
kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 364,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 108,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 148,4 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 79,7 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1 216,3 mlrd. so'mni tashkil etib 113,7 % ga o'sdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 143,3 mlrd. so'mni tashkil etib 2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,0 foiz bo'lib, 1401,8 ming so'mni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 002,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 219,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,3 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 450,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,6 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 2 663,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 669,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,3 %) tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahar va (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (27,0 %), Shahrisabz shahar (8,2 %), Koson (8,3 %) va Chiroqchi tumanlari (7,5 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 219,1 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,4 % ulushiga toʻgʻri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 4 783,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,6 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (jamiga nisbatan foiz hisobida)



Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	219,1	104,6	4 783,8	108,6
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	127,1	91,0	1 224,9	115,7
Shahrisabz sh.	5,7	101,4	402,7	105,7
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	9,5	6,0 m.	192,8	106,0
Dehqonobod	1,6	87,4	162,6	105,0
Qamashi	3,2	103,8	343,2	106,2
Qarshi	1,6	43,4	182,3	107,1
Koson	22,8	167,6	390,3	106,0
Kitob	5,1	173,4	255,0	105,6
Mirishkor	1,4	65,1	166,6	106,2
Muborak	0,7	5,3	146,9	114,6
Nishon	1,5	76,8	186,9	106,1
Kasbi	1,8	64,8	196,3	105,4
Ko‘kdala	1,6	23,0 m.	156,5	106,8
Chiroqchi	7,7	101,3	369,3	106,5
Shahrisabz	25,0	3,1 m.	152,5	106,7
Yakkabog‘	3,0	95,8	255,0	104,9

2024- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘sish sur‘ati bo‘yicha Muborak tumani (114,6 %), Qarshi shahri (115,7%) Qarshi tumani (107,1 %) Shahrisabz shahri (105,7 %), va Koson tumanida (106,0 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,4 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Qarshi shahrida (58,0 %) va Shahrisabz (11,4%), Koson (10,4 %) tumanlarida kuzatildi.